

## Xalqaro hamkorlik




Hozirgi kunda Toshkent kimyo-texnologiya instituti AQSh, Fransiya, Germaniya, Ispaniya, Italiya, Polsha, Bolgariya, Ruminiya, Chexiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Hindiston, Xitoy, Turkiya, Rossiya, Qozog'iston kabi davlatlarning universitetlari bilan 110 ga yaqin ikki tomonlama hamkorlik shartnomalari imzolagan va shartnoma doirasida institut professor-o'qituvchilari, yosh tadqiqotchi, magistrant va talabalarning horijiy stajirovka va akademik almashinuv dasturlarida ishtiroki ta'minlanmoqda, hamda ko'plab xorijiy professor-o'qituvchi, mutaxassis va olimlar institutga o'quv va ilmiy faoliyatga jalb qilinmoqda.



Toshkent kimyo-texnologiya institutida xalqaro aloqalar borasida 1991- yillardan boshlab AQSh, Yevropa, Osiyo mamlakatlarning nufuzli oliy ta'lim, ilmiy-tadqiqot muassasalari va turdosh tashkilotlari bilan to'g'ridan-to'g'ri va xalqaro ta'lim dasturlari doirasida hamkorlik aloqalari amalga oshirildi.



Ushbu hamkorlik aloqalari natijasida har yili 100 ga yaqin talabalar, professor-o'qituvchilar va ilmiy xodimlar xorijda o'qish, malaka oshirish hamda ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish imkoniyatlariga ega bo'libgina qolmasdan, xorijiy mamlakatlarda nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilib xalqaro va xorijiy fanlar akademiyalarining akademiklari va faxriy professorlari unvonlariga ega bo'ldilar.



## **TKTIning strategik hamkorliklari**

TKTIning strategik hamkorligi asosiy global muammolarda transformativ ta'sir ko'rsatish uchun yetakchi akademiklarni va taniqli universitetlar resurslarini birlashtiradi. Ular ustuvor mavzular bo'yicha ishtirok etishni osonlashtirishi va ko'p qirrali va ko'p intizomli hamkorlikni ta'minlashi mumkin. Bunday hamkorliklar TKTIning asosiy ta'lim va tadqiqot maqsadlariga, shuningdek, global strategiyasiga ta'sir qiladi va o'zaro manfaatli potentsialga ega.

## **Xalqaro ta'lim**

Toshkent kimyo-texnologiya institutida 400 dan ortiq professor-o'qituvchilar mehnat faoliyatini yuritadi, ulardan 5 nafari O'zbekiston Respublikasi va Xalqaro Fanlar Akademiyalarining akademiklari va muxbir a'zolari, 266 nafari fan doktorlari va nomzodlari, falsafa doktorlari hisoblanadi. Institutda Yevropa Ittifoqi, AQSh, Yaponiya, Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Janubiy Koreya va boshqa Davlatlar yetakchi universitetlaridan taklif etilgan xorijiy professor-o'qituvchilar tomonidan muntazam ravishda o'quv seminarlari va ma'ruzalar tashkil etiladi. Bundan tashqari, Toshkent kimyo-texnologiya institutida o'qituvchilarni malaka oshirish va qayta tayyorlash tarmoq markazi va ilmiy darajalar berish bo'yicha ikkita ixtisoslashtirilgan ilmiy kengash, "Asfalt-beton texnologiyasini modifikatsiyalash bo'yicha O'zbekiston-Xitoy qo'shma ilmiy tadqiqot laboratoriyasi", "Zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil laboratoriyasi" faoliyat ko'rsatmoqda.

**ERASMUS+** doirasida 12 ta; **Mevlana** doirasida 2ta, ikki tomonlama shartnoma asosida 3ta xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan akademik almashinuv shartnomalari imzolangan.

## Xalqaro talabalar

